



## FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 25-avgust

136-11-163-F/25

Farg'ona tumani hokimligi

### Farg'ona tumanida “Oila va xotin-qizlar maskani”ni tashkil qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2024-yil 20-fevralda ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bir qator ijtimoiy masalalar tarkibida oilalarni, xususan, ijtimoiy qiyin vaziyatdagi oilalarni, nogironligi bor fuqarolarni, ota-onasidan ayrılgan yoshlarni manzilli va maqsadli qo‘llab-quvvatlash masalasi ko‘rib chiqilgan.

“Yangi O‘zbekiston”da barpo bo‘layotgan yangi oilalarda milliy qadriyatlar, milliy mezonlarni saqlab qolish borasida olib borayotgan sayin-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash va bu borada berayotgan topshiriqlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2024 yil 30 sentabr kungi XDFU 1-sonli bayoni va Farg‘ona viloyati hokimligining 2025-yil 11-aprel kungi 08-7/3240-sonli xati ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasiga asoslanib:

1.Tuman hokimi o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar bo‘limi (X.Abdug‘aniyeva), tuman Adliya bo‘limi (S.Maxkamov) va tuman Ichki ishlar bo‘lim (J.Xasanov) oilalarni mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, shuningdek, oilaviy ajrim hamda oila-turmush doirasidagi nizolarni oldini olish borasidagi ishlarning ta’sirchanligi va samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini belgilansin.

2.Tuman hokimi o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar bo‘limi (X.Abdug‘aniyeva) bir hafta muddatda oilaviy ajrim holatlarini har bir mahalla kesimida tanqidiy tahlil qilib, ajrim sabablarini o‘rganib, ajrim yoqasiga kelib qolgan har bir oila bilan individual ishlash tizimini amalga oshirsin; bir oy muddatda oilalarni mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish, nikohdan ajralish holatlarining oldini olish bo‘yicha “Yo‘l xaritalari”ni tasdiqlasin va har chorak yakunida uning ijrosini muhokama etilishini yo‘lga qo‘ysin; mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda Maskan faoliyatini to‘liq va samarali ishlashini tashkil etsin.

3.Tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limi (X.Abdug‘aniyeva), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Yusupov) maskanni zarur mebel, maishiy va kompyuter texnikasi bilan ta’minlash choralarini ko‘rish, bunda mahalliy byudjetning qo‘sishimcha

manbalari, shuningdek, qonun hujjatlari bilan ta'qiqlanmagan boshqa manbalardan amalga oshirilishi bo'yicha taklif kirtsin;

4.O'zbekiston Mahallalar uyushmasi Farg'ona tumani bo'limi (D.Xomidov), Vodil mahalla fuqarolar yig'ini Marg'ilon ko'chasi 7-uyda joylashgan Vodil mahalla fuqarolar yig'ini ma'muriy binosining tegishli qismi "Oila va xotin-qizlar maskani"ni tashkil etish maqsadida vaqtinchalik foydalanishga topshirilsin.

5.Davlat kadastrlar palatasi tuman bo'limi (N.Otajonov) Vodil mahalla fuqarolar yig'ini Marg'ilon ko'chasi 7-uyda joylashgan Vodil mahalla fuqarolar yig'ini ma'muriy binosining tegishli qismini o'rnatilgan tartibda operativ boshqaruva asosida, tasarruf etish huquqisiz Maskan tashkil etish uchun foydalanishga topshirish choralarini ko'rishga taklif kirtsin.

6.Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Yusupov)ga foydalanishga berilayotgan xizmat xonalarini hamda kommunal to'lovlar bo'yicha hisob-kitob ishlarini o'z vaqtida amalga oshirsin.

7.Tuman Adliya bo'limi (S.Maxkamov), tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (Sh.Yuldashev), tuman Tibbiyat birlashmasi (X.Toshboev),O'zbekiston Mahallalar uyushmasi tuman bo'limi (D.Xomidov), Din ishlari bo'yicha tuman vakili (I.Abduraxmonov), Yoshlar ishlari agentligi (M.Alijonov), "Nuroniy" jamg'armasi (T.Madaliev) Maskanlarga nikohlanuvchi shaxslarni o'qitish va nizoli oilalar bilan ishslash, reproduktiv salomatlik bo'yicha o'quvlarni tashkil etish uchun mutaxassislarni jalb qilish choralarini ko'rsin; faoliyatini ilmiy-metodik qo'llanmalar va tarqatma materiallar, videoroliklar bilan ta'minlashda amaliy yordam ko'rsatsin.

8.Maskan faoliyatini tizimli tashkil etish va unda o'tkazilayotgan mashg'ulotlar sifatini oshirish maqsadida tuman Adliya bo'limi (S.Maxkamov):

- maskanda huquqshunos maslahati va huquqiy bilim berilishini tashkil etish bo'yicha choralar ko'rsin;
- mahallalardagi xotin-qizlar faollarini mediativ yondoshuvlar bo'yicha o'quvlar o'tkazilishi bo'yicha tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi bilan amaliy ishlar tashkil etsin;
- FHDYO organlariga nikohga ariza bergen nikohlanuvchi shaxslarni ushbu maskanda tashkil etilayotgan o'quvlarda qatnashishini ta'minlasin.

9.Maktabchaga va maktab ta'limi tuman bo'limi (Sh.Yuldashev) maskanda grafik asosida psixolog maslahatlar va psixologik bilimlar berilishini tashkil etish bo'yicha choralar ko'rsin.

10.Tibbiyat birlashmasi tuman bo'limi (X.Toshboev) reja-grafik asosida tibbiyat xodimlarini biriktirib, tibbiy maslahat va tibbiy bilimlar berilishini tashkil etsin;

Maskan faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida, "Salomatlik xonalari" hamda "Ona va bola" xonalarini tashkil etishda ko'maklashsin;

11.Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi Maskanda oilalarni daromad topishga o‘rgatish bo‘yicha o‘quvlar tashkil etishga mutaxassislar jalb qilsin.

12.Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tuman bo‘limi (I.Abduraxmonov) tuman bosh imom-xatibi hamda otinoyi tomonidan diniy qadriyatlar asosida oila muqaddasligi to‘g‘risidagi tushunchalar berilishini tashkil etsin.

13.Barcha mas’ul bo‘lim va tashkilotlar maskanga jalb etilgan mutaxassislarning oylik ish haqlariga qo‘srimcha ustama belgilash va rag‘batlantirilishini o‘rnatilgan tartiblarga muvofiq amalga oshirsin.

14.Yoshlar ishlari agentligi (M.Alijonov) Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 820-son qarori ijrosini ta’minalash maqsadida:

ishtirokchilarni nikoh va oila munosabatlarini targ‘ib qiluvchi tarqatma materiallar bilan ta’minalas;

oila mavzusiga bag‘ishlangan ta’sirchan videoroliklarni ommaviy axborot vositalari  
va saytlarda namoyish etsin; markaz faoliyatini oliy ta’lim muassasalari bitiruvchi yoshlar, nikoh yoshiga yetgan yoshlar orasida targ‘ib qilsin.

15.Tuman ichki ishlar bo‘limi (J.Xasanov) maskanda oilaviy-maishiy nizolar bilan bog‘liq muammoli oilalar bilan maqsadli ishlarni tashkil etishga amaliy yordam berilishini ta’minalas;

Huquqiy maslahatlar berish uchun mutaxassislarni maskanlarga reja-grafik asosida biriktirsin.

16.Tuman hokimi o‘rinbosari X.Abdug‘aniyeva:

muntazam ravishda mutasaddi bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda oilalarni mustahkamlash masalalariga oid topshiriqlar ijrosini joylarga chiqqan holda, ularning bajarilishini tanqidiy o‘rganib borsin hamda mutasaddilar bilan birgalikda samaradorligini oshirish choralarini ko‘rsin; har chorak yakunida belgilangan vazifalar ijrosini mutasaddilar bilan muhokama qilib borsin.

17.Mazkur farmoyishda belgilangan tadbirlar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta’minalash tuman hokimi o‘rinbosari X.Abdug‘aniyeva zimmasiga yuklatilsin.

**Farg‘ona tuman hokimi**



**Inomov X.T**